

### “ELEKTRON DARSLIKLARGA QO’YILADIGAN DIDAKTIK, PSIXOLOGIK TALABLAR” BUGUNGI KUNDA TIBBIY FANLARNI O’QITISHDA AKT NING O’RNI

G.Bekmuratova

G.Dawletmuratova

D.K.Sipatdinova

B.Zarimbetova

*Nukus shahar №1 sonli kasb-hunar maktabi o’qutivchilari*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablari, o’rta maxsus ta’lim tizimi, oliy ta’lim muassasalarida kompyuter sinflari, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan labaratoriya xonalari, elektron kutubxonalar zamonaviy talab doirasidagi konferensiya zallari bilan ta’minlash ishlari davlatimizning ta’lim sohasidagi oldiga qo’yan eng asosiy maqsadi bayon etilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini, zamonaviy ta’lim, elektron darslik yaratishga qo’yiladigan talablar, didaktik talablar, psixologik talablar.*

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad albatta kelgusida davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yetuk mutaxasis kadrlar etishtirib chiqarish bo’lib, buning uchun ta’lim jarayonini jahon andozalari asosida tashkil etish shartligi aniq ko’rinib bormoqda. Jahon standartiga javob beradigan darajadagi bilimga ega mutaxassislar tayyorlashda ta’lim jarayonida asosiy e’tibor va talab asosan akademik litsey va o’rta maxsus ta’limi jarayoniga va ta’lim oluvchilariga qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi joriy etilgan bo’lib boshlang’ich va umumiy o’rta talim, akademik litsey va o’rta maxsus talimi bepul, majburiy ixtiyoriy ta’lim tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablari, o’rta maxsus ta’lim tizimi, oliy ta’lim muassasalarida kompyuter sinflari, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan labaratoriya xonalari, elektron kutubxonalar zamonaviy talab doirasidagi konferensiya zallari bilan ta’minlash ishlari davlatimizning ta’lim sohasidagi oldiga qo’yan eng asosiy maqsadidir.

Didaktik talablarga - ilmiylik, o’zlashtirishning yengilligi, muammoni qo’yish va har tomonlama asosli tarzda bilim olishlik, o’qish jarayonida o’quvchining faol va ongli ishtiroti, bilim olishning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimlarni mustahkam o’zlashtirishning ta’milanishi, ta’lim tizimida bilimni o’zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi o’qituvchi va o’quvchilar vazifalarining yaxlitligi, o’quvchi uchun o’qish mustaqil holda bo’lishligining ta’milanishi, o’qitishning interfaolligi, uning uyg’unligini ta’minlash, o’quv materialini taqdim etishda tizimli yondashish kabilar kiradi.

Psixologik talablar: elektron darslik haqida gapirilganda, ularning psixologik, estetik, gigienik va tibbiy-psixologik tomonlarini ham e’tiborga olish lozim bo’ladi. Buning sababi, o’quvchining jismi elektron ko’rinishdagi ma’lumotlarni qabul qilishning o’ziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Ammo shunday psixologik to’siqlar bo’lishi mumkinki, o’quvchilar kompyuter ekranidagi ma’lumotlarni to’g’ridan-to’g’ri qabul qila olmaydilar.

Ma'lumotlarni qabul qilishda uning faqat mazmuni emas, balki o'lchami, harflarning ko'rinishi, rangi va tasvirning harakati kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun elektron darslikning matni o'zining xususiyatlariiga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilishi uchun elektron darslikdagi o'ziga xos xususiyatlar, ya'ni o'chib-yonish, rangni ajratib ko'rsatish, tagiga chizib qo'yish, ovoz kabi holatlardan ta'sir etishi mumkin. Shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday holatlarning ko'payib ketishi insонning sog'ligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Darslikning elektron versiyasini yaratishda yana bir muhim muammo-bu o'quvchilarga qancha miqdorda ma'lumot berish mumkinligi bilan bog'liqdir. Odatda o'quvchi jismi tashqaridan kelayotgan ma'lumotlarga nisbatan moslashishini talab etadi. Shu sababli bu sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, darslikning elektron versiyalari bilan ishslashda mashq qilish rejimida yoki ko'proq mustaqil ishslash soatlarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Elektron darslikning samaradorligiga erishish kompyuter bilan o'zaro muloqotning psixologik tomonlarini hisobga olish asosida amalga oshirilib, ularga:

- elektron darslikdagi o'quv materialini taqdim etish, anglash(kognitiv) jarayonining verbal-mantiqiy, sensor-pertseptiv (his kilish, sezish) va ifodalanish darajasiga mos kelishi kerak. Shuningdek anglash bilan bog'liq psixologik jarayonlarga axborotni qabul qilish (asosan, ko'rish hamda eshitish, his qilish), e'tibor qilish (uning turg'unligi, jamlanishi, bir narsadan ikkinchisiga o'tishini, taqsimlash) fikrlash (nazariy tushuncha, amaliy-ko'rgazmali va amaliy-harakatli), tasavvur qilish, xotira (bir soniyalik, qisqa va uzoq muddatli, qisqa muddatli xotirada ma'lumotni joylashtirish hodisasi) va boshqalar;

- elektron darslikdan foydalanuvchilar uchun qulay, fanni o'zlashtirishga ijodiy yondashish va sihat salomatlikni saqlash nuqtayi nazaridan maqbul o'quv sharoitlarini yaratish kabi asosiy talablar kiradi.

Axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan elektron darsliklarning (ED) tarkibi quyidagi elementlarni o'zida ifoda etishi lozim:

- muqova;
- mundarija;
- qisqacha annotatsiyasi;
- EDning «to'liq bayoni»;
- EDning qisqacha bayoni (chizma ko'rinishida);
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- matndan olingen parcha bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualliflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- atamalar ro'yxati;
- ED bilan ishslash uchun ma'lumotlar tizimi.

Elektron darslikning muqovasi imkoniyat darajasida chiroyli bo'lishi maksadga muvofiqdir. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish zarur. EDning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan, vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqt, EDni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflar haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniyati mayjud. Mundarija ED ning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U bir tomonidan yetarli darajada mavzular ketma-

ketligini saqlab, kerakli mavzularga tezkor ravishda murojaat qilishni ta'minlay oladigan darajada, ya'ni gipermurojaatlar bilan boyitilgan bo'lishi va ekranning bir qismida joylashishi kerak.

Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

Elektron darslikning mazmuni, dizayni va shakli, uyg'unligi bo'yicha mezonlar quyidagi rasmda keltiriladi.

Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar:

- elektron darslik yaratuvchi mualliflarni ko'rsatish tartibi, dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha amal qilinishi lozim bo'lgan mezonlar;

- elektron darslikning mazmuni, dizayni va shakli, uyg'unligi bo'yicha mezonlar;

- elektron darslikning strukturasi sxemalar tarzida quyidagicha ifodalangan:

Ta'linda AKTni qo'llash o'quvchilarning intelektual salohiyatini, ijodkorlik xususiyatlarini, bilimlari mustaqil egallash hamda har xil axborot manbalari bilan ishslash kabi sifatlarini rivojlanishiga olib keladi. Xozirgi kunda jahon ta'lim amaliyotida keng tarqalib borayotgan va bizning mamlakatimizda esa joriy etilayotgan o'qituvchilarni masofadan malakasini oshirish tizimi faoliyati AKT imkoniyatlaridan keng foydalanishni nazarda tutadi. Masofadan ta'lim olish asosan mustaqil ravishda o'qishni nazarda tutadi. O'qituvchilarni masofadan o'qish orqali malaka oshirishlari an'anaviy shaklda malaka oshirishlaridan avvalambor: o'qituvchining o'z ustida o'ziga qulay bo'lgan vaqtida va joyda, hamda o'ziga qulay va mos bo'lgan jadallikda shug'ullanish imkoniyatiga egaligi; materialni o'zlashtirish uchun vaqtini chegaralanmaganligi; o'qish, ishdan ajralmagan holda olib borilishi mumkinligi; ko'p sondagi o'qituvchilarni bir paytning o'zida juda keng axborot bazalaridan foydalanish imkoniyatiga egaligi; an'anaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun qilinayotgan sarf-xarajatlarni keskin qisqarishi; o'qish jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining eng yangi yutuqlaridan foydalanish va bu orqali jahon axborot makoniga kirish va uni bilish imkoniga ega bo'lishlik; sog'ligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan qat'iy nazar qayta tayyorlash va malaka oshirishda hamma uchun sharoit va imkoniyatning bir xilligi; ta'lim xizmati bozoridagi jahon yutuqlarini eksport va import imkoniyatlarini mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib masofadan o'qitishni, xususan masofadan qayta tayyorlash va malaka oshirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, u o'qituvchining intellektual, ijodiy potentsialini, uni analistik va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining yutuq va imkoniyatlaridan ta'linda foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning qudratli omili ekanligi shubhasiz bo'lsada, bu yutuq va imkoniyatlardan qanday qilib, qaysi usul, yondashuv va nisbatda, qanday tamoyillarga asoslangan holda foydalanish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda, ya'ni ta'linda AKT ni qo'llash va bu bilan ta'lim samaradorligini oshirish ma'nosida quyidagi ikki tamoyil haqida izoh berib o'tish joiz:

1. Start bilimlar tamoyili. Ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'quvchi AKT vositalaridan foydalanish va ularni ishlatish bo'yicha ma'lum boshlang'ich bilim va malakaga ega bo'lishi kerak. Chunonchi ta'lim oluvchining kompyuter va kompyuter jihozlarini mustaqil ishlatishiga, aloqa tarmoqlari orqali tegishli ma'lumotlarni olishiga yoki

yuborishiga, bunday ma'lumotlar bilan ishlashiga, bunday tarmoqlar orqali muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Buning uchun esa undan ma'lum darajadagi kompyuter savodxonligi, shuningdek, tarmoqlarida axborot almashuvini amalga oshirish malakalariga ega bo'lish talab etiladi. Ta'lim oluvchining bunday malakalarga yoki darajalarga, boshqacha qilib aytganda dastlabki tayyorgarlikka ega yoki ega emasligi ta'limda AKTni qo'llashning samardorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Elektron o'quv materiallarini yaratishda esa o'quvchilar mana shunday dastlabki start bilimlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

2.Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llashning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi tamoyili. Ta'limni AKTni qo'llab tashkil etishda bu tamoyilga amal qilish muhim hisoblanadi. Chunonchi, masalan, Rossiya olim va mutaxassislarining tajribasiga qaraganda kattalar ta'limida o'qitishning turli vositalarini qo'llashning eng maqbul (optimal) nisbati quyidagicha ekanligi ma'lum bo'lgan: an'anaviy qog'ozga pechat qilingan materiallar - 40:50%, WWW-serverlardagi materiallar - 30:35%, kompyuterli konferentsaloqalar - 5:10%, boshqa vositalar - 5:15%. Binobarin, garchi, yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, jumladan INTERNET juda jozibali va o'ziga tortuvchi didaktik xususiyatlarga ega bo'lsada, ular bilan ortiqcha qiziqish yoki ularga ortiqcha ahamiyat berish fetishlashishga, bu esa o'z navbatida qaysidir o'qitish vositasini boshqa hammasidan afzal ko'rishdek noto'g'ri tasavvur va xulosaga olib kelishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. О'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. Toshkent: Shark, 1997.y
3. Ҳамдамов Р., Бегимкулов У., Тайлоқов Н., Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун. -Т.: 2010, 120 б.
4. Ҳамдамов Р., Парпиев А., А Марахимов., Бегимкулов У., Бекмурадов М., Тайлоқов Н., Электрон ўқув услугий мажмуалар. Олий таълим муассасалари учун. ЎзМЭ давлат илмий нашриёти. -Т.: 2008, 144 б.
5. Дацко Т.Г. и др.Электронный учебно-методический комплекс для самостоятельной работы студентов/Дацко Т.Г., Петрова В.В., Смирнова Г.К./// Проблемы вузовского учебника. -М., 1995. -С.29-30.

Хранение: НМЦ

6. [http://edu.nstu.ru/dem\\_new/usl\\_ob.htm](http://edu.nstu.ru/dem_new/usl_ob.htm)
7. <http://www.intuit.ru/>